

DIACHRONIC ANALYSIS OF ECONOMIC-FINANCIAL TERMINOLOGY IN KOREAN

Kamola Ne'matjon qizi TOJIYEVA

Teacher

Department of Foreign language and literature

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

KOREYS TILI IQTISODIY-MOLIYAVIY SOHASIGA OID TERMINLARNING DIAKRONIK TAHLILI

Kamola Ne'matjon qizi TOJIYEVA

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ДИАХРОНИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКОНОМИКО-ФИНАНСОВОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА

Камола Неъматжоновна ТОЖИЕВА

Преподаватель

Кафедра иностранного языка и литературы

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан kamola6578@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Tojiyeva K.N. Koreys tili iqtisodiy-moliyaviy sohasiga oid terminlarning diaxronik tahlili.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 45-62

<https://doi.org/10.36078/1762246828>

Received: August 18, 2025

Accepted: October 17, 2025

Published: October 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. This article examines the formation and diachronic evolution of Korean economic-financial terminology through a historical-linguistic lens. The research corpus integrates sources ranging from Samguk Sagi, Imwon Gyeongjeji and the Gyeongguk Daejeon tax code to Japanese-era statistical digests, twentieth-century government white papers and contemporary digital-banking platforms. The notion of a “terminological situation” is evaluated along three axes: semasiological structure (core ↔ periphery), onomasiological motivation (naming drivers) and extralinguistic catalysts (socio-economic forces). Findings confirm the diachronic continuity of the Sino-Korean hanja layer, the large-scale integration of English vocabulary during industrialisation, and the emergence of a hybrid two-to-three-tier system in the digital phase. An evolutionary algorithm—borrowing → phonetic adaptation → specialisation → semantic recombination—was modelled; each stage was quantitatively profiled via affix frequency, phonemic substitution and meaning-expansion coefficients. The newly proposed Lexical Dynamics Index (LDI) gauges term-stock growth by combining internal morphological innovation with external global-discourse pressure. Practical outputs include a four-criterion equivalence matrix for translation (denotation, register, domain acceptance, corpus frequency) and an open electronic corpus of 10 000+ entries, providing a methodological platform for parallel studies in English and Uzbek. The model further enables automatic tracking of terminological migration within market theory, fintech and blockchain discourses, advancing predictive linguistics and

evidence-based language policy.

Keywords: terminology; Sino-Korean lexis; Hangeul; economic history; digital lexis.

Annotatsiya. Maqolada koreys tilidagi iqtisodiy-moliyaviy terminlarning shakllanishi va evolyutsiyasi tarixiy-lingvistik prizma orqali yoritiladi. Tahlil korpusiga “Samguk Sagi, “Imwon Gyeongjeji, “Gyeongjuk Daejeon” soliq kodeksi, Yapon mustamlaka davri statistik to‘plamlari, XX asr hukumat oq qog‘ozlari hamda raqamli bank platformalari terminlari kiritildi. “Terminologik vaziyat” tushunchasi semasiologik (yadro-periferiya), onomasiologik (nomlash motivlari) va ekstralingvistik (ijtimoiy-iqtisodiy katalizatorlar) parametrlar orqali baholandi. Natijalar sinxritoy hanja qatlamining diaxron uzviyligini, industriyalashuv jarayonida inglizcha leksika keng miqyosda integratsiyalangani va raqamli bosqichda gibrid ikki-uch darajali tizim shakllanganini ko‘rsatdi. Evolyutsion algoritmi o‘zlashish → fonetik moslashuv → ixtisoslashuv → semantik rekombinatsiya bosqichlari sifatida modellashtirildi; har faza affiksatsiya chastotasi, fonemik almashuv va ma’no kengayishi koeffitsiyentlari bilan kvantitativ belgilandi. Shuningdek, Leksik Dinamika Indeksi (LDI) termini boyish sur’atini ichki morfologik innovatsiya va tashqi global diskurs bosimini inobatga olgan holda, 0,73 qiymat bilan baholadi. Tadqiqot koreys tilidagi iqtisodiy terminlarning barqarorligini aniqlab, tarjima va lug‘at tuzish amaliyotiga qo‘llaniladigan to‘rt mezonli ekvivalent tanlash jadvali hamda 10 000 birlikli ochiq elektron korpusni tavsiflaydi, bu esa ingliz va o‘zbek tillarida ham qiyosiy izlanishlar o‘tkazish uchun metodik poydevor yaratadi. Kelgusida model iqtisodiy neologizmlarning bozor nazariyasi, fintech va blokcheyn diskurslarida qanday aks etishini, shuningdek, terminlar migratsiyasi tezligini avtomatik kuzatish imkonini beradi. Bu esa yanada ilmiy prognozlash va til siyosatini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: terminologiya; sinxritoy leksika; hangul; iqtisodiy tarix; raqamli leksika.

Аннотация. Статья посвящена формированию и диахронной эволюции корейской экономико-финансовой терминологии в историко-лингвистическом ракурсе. Анализируемый корпус включает источники от «Самгук саги», «Имвон Кёнчечжи» и налогового свода «Кёнгук Тэджон» до статистических сборников японского колониального периода, «белых книг» правительства XX века и терминов современных цифровых банковских платформ. Понятие «терминологическая ситуация» оценено по трём параметрам: семасиологическая структура «ядро — периферия», ономасиологические мотивационные факторы называния и экстралингвистические социально-экономические катализаторы. Выявлены: непрерывность сино-корейского ханчжя-слоя, масштабная интеграция англоязычной лексики в эпоху индустриализации и формирование гибридной двух-/трёхуровневой системы в цифровую эпоху. Смоделирован эволюционный алгоритм «заимствование → фонетическая адаптация → специализация → семантическая рекомбинация»; каждая стадия количественно профилирована частотностью аффиксации, фонемными субституциями и коэффициентами расширения значения. Предложенный Индекс лексической динамики (LDI) измеряет рост терминологического фонда, сочетая внутренние морфологические инновации с внешним давлением глобального дискурса. Практические результаты включают четырёхкритериальную матрицу эквивалентности

для перевода (денотативное совпадение, регистр, отраслевое признание, частота в корпусе) и открытый электронный корпус из 10 000 + единиц, формирующий методологическую базу для параллельных исследований на английском и узбекском языках. Модель также позволяет автоматически отслеживать миграцию терминов в дискурсах рыночной теории, финтеха и блокчейна, способствуя прогностической лингвистике и обоснованной языковой политике.

Ключевые слова: терминология; сино-корейская лексика; хангыль; экономическая история; цифровая лексика.

Kirish

Koreys tilidagi iqtisodiy-moliyaviy terminologik vaziyatning diaxronik tahlili tadqiqotimizning asosiy yoʻnalishini tashkil etadi. Dissertatsiya doirasida quyidagi jihatlar yoritiladi: birinchidan, uch podshohlik davri (“Samguk Sagi [Kim Busik 1145; 27]”) va Goryeo davridagi ilk iqtisodiy-moliyaviy atamalarining ona tilida qabul qilinish mexanizmi; ikkinchidan, Joseon davrida Xitoydan oʻtib kelgan “銀(ün)”, “(cheon)” kabi sinxron-etimologik leksik birliklarning koreys tilidagi morfologik va fonetik moslashuvi; uchinchidan, XIX–XX asrlarda industrializatsiya va mustamlaka siyosati taʼsirida fransuzcha va inglizcha “capital”, “interest” kabi moliyaviy tushunchalarning termin sifatida meʼyoriy hujjatlarga kiritilishi; mustaqillik va global iqtisodiy integratsiya jarayonida ISO standartlari va davlat termin siyosati orqali yangi moliyaviy-iqtisodiy leksikaning standartlashtirilishi hamda amaliy qabul darajasi. Har bir bosqich terminologiyaning semasiologik (maʼno doirasi), onomasiologik (nomlanish uslubi) va ekstralingvistik (iqtisodiy-siyosiy faktorlar) parametrlarini tahlil qilish orqali koʻrib chiqiladi. Ushbu yondashuv terminologiya fanida “terminologik vaziyat” tushunchasini aniqroq belgilashga hamda koreys iqtisodiy-moliyaviy terminlarining tarixiy oʻsish bosqichlarini ijobiy baholashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Qadimiy qatlamni belgilagan Samguk Sagi [Kim Busik 1145; 27] (1145) dagi 농자정본, 녹읍, 식읍 kabi birliklar agrar-feodal moliya leksikasining eng erta hujjatlashgan namunasidir. Oʻrta davrda 서유구-ning 임원경제지 [Seo Yu-gu 1841; 88] va 홍만선-ning 산림경제 [Hong Man-seon 1715; 53-bet] asarlari hanja morfemalarini sistemalashtirib, savdo-sodiq terminlarini ilmiy tildagi mustahkam qoidaga aylantirdi; Sejong davri 경국대전 esa hangul kirsa-da, huquqiy prestijni hanja orqali saqladi. Ilk zamonaviy bosqichda gazeta va mis tanga qonunlari “currency, tariff” singari inglizcha soʻzlarni diskursga olib kirdi, XX asr besh yillik rejalar esa 자립경제, 통화개혁 kabi makroiqtisodiy atamalarni siyosiy leksikaga bogʻladi. XXI asrda Ha-Joon Chang va FinTech qonunlari 핀테크, 블록체인 singari gibrad neologizmlarni legitimlashtirib, koreys iqtisodiy terminologiyasini global-raqamli bosqichga olib chiqdi.

**Iqtisodiy- moliyaviy terminlar taraqqiyotining tarixiy davrlari
(koreys tili tarkibida)**

№	Davrlar	Yillar	Manbaalar
1	Old Korean period (Qadimiy davr)	Miloddan avvalgi davrlar — milodiy VII asr	김부식 [Kim Busik] “삼국사기” [Samguk Sagi] (“Uch podshohlik tarixi”)
2	Middle Korean period (Oʻrta davr)	VII–XIX asrlar	세종대왕 “훈민정음” [Hunminjeongeum] (“Xalqni toʻgʻri tovushlar bilan oʻqitish”), 서유구 [Seo Yu-gu] “임원경제지” [Imwon Gyeongjeji] (“Oʻrmon va bogʻ iqtisodiy toʻgʻrisida”) –
3	Early Modern Korean period (Ilk zamonaviy davr)	XIX asr oxiri – 1945-yil	홍만선 [Hong Man-seon] 산림경제 [Sanlim Gyeongje] (“Oʻrmon xoʻjaligi iqtisodiy”) 유길준 [Yu Kil-chun] “서유견문” [Seoyu Gyeonmun] (“Gʻarbga sayohatdan kuzatishlar”), 백남운 [PaekNam-un] “조선사회경제사” [Joseon sahoe gyeongjesa] (“Choson jamiyati iqtisodiy tarixi”)
4	Modern Korean period (Zamonaviy davr)	1945–1990-yillar	김정일 [Kim Jong Il] “주체 사상에 대하여” (“Chuchxe gʻoyasi haqida”), 박정희 [Park Chung Hee] “5개년계획” (“Besh yillik iqtisodiy rivojlanish rejasi”)
5	Post Modern period (Post-zamonaviy davr)	1990-yillardan hozirgacha	장하준 [Ha-Joon Chang] “자유무역의 신화와 자본주의의 은밀한 역사” (“Yomon samariyaliklar: erkin savdo afsonasi va kapitalizmning yashirin tarixi”) “겨레말큰사전” (Umumkoreya lugʻati)

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot V–XXI asrlar oraligʻida koreys iqtisodiy-moliyaviy lugʻatiga kiruvchi 150 dan ortiq atamani qamrab oldi. Avvalo Samguk Sagi [Kim Busik 1145; 27], Imwon Gyeongjeji [Seo Yu-gu 1841; 88], Joseon soliq kodekslari va XX asr hukumat oq qogʻozlaridan iborat raqamli korpus tuzildi; har bir birlik hanja, hangul va lotin koʻrinishida kodlanib, morfema hamda asosiy semalar boʻyicha tahlil qilindi. Sino-koreys, tub koreys va inglizcha qatlamlar etimologik jadvalda bosqichma-bosqich solishtirildi, semantik kengayish-torayish vektorlarini aniqlash

uchun oddiy Markov zanjiri modeli qo'llandi. Lingvistik o'zgarishlar soliq hajmi, savdo balansi va monetar dekretlar haqidagi tarixiy ma'lumotlar bilan chatishtirib tekshirildi; ikki tadqiqotchining 0,95 kappa ko'rsatkichi kodlash ishonchliligini tasdiqladi. Har davrga kamida uch xil janrdagi manba kiritilib, metodologik haqqoniylik mustahkamlandi. Gephi grafik tahlili period–lemma–funksiya aloqalarini vizual ko'rinishda namoyon etdi, Bass modeli esa post-zamonaviy bosqichda inglizcha neologizmlarning tez diffuziyasini ko'rsatdi. Natijalar agrar, industrial va raqamli bosqichlarning leksik izini aniq ochib, til va iqtisod o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni isbotladi hamda tarjimashunoslik, leksikografiya va iqtisodiy tarix tadqiqotlari uchun tayyor ma'lumot matritsasini yaratdi.

Tahlil va natijalar

Old Korean period (Qadimiy davr)

Qadimiy Koreya iqtisodiy-moliyaviy terminologik vaziyati davlat va agrar strukturalar o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik bilan ajralib turadi. “삼국사기 [Kim Busik 1145; 27]” [Samguk Sagi]da qayd etilgan 농자정본 [nongja jeongbon] “dehqonchilik hokimiyat asosi” konsepti agrar ishlab chiqarishni davlat siyosatining negiziy tamoyili sifatida belgilab, agrar munosabatlarning moliyaviy jihatlarini ifoda etgan. Shu davrda aristokrat va amaldorlarga xizmat evaziga ajratilgan yer 녹읍 [nok-eup] “hissa uchun ajratilgan yer” ularning moliyaviy ta'minotini tashkil etuvchi asosiy tushuncha bo'lib, feodal moliyaviy munosabatlarning tuzilishini aks ettirgan.

Bundan tashqari, butun bir qishloq solig'i muayyan shaxs yoki davlat ehtiyojlariga bag'ishlangan tizim 식읍 [sik-eup] “soliq qilingan qishloq” qishloq resurslaridan olinadigan daromadni markazlashtirgan va davlat byudjetining agrar qismiga xizmat qilgan. Ushbu terminlar asosan Xitoy tilidan o'zlashgan sinxron-semasiologik birliklardir. Bu terminologik bosqichda iqtisodiy-moliyaviy terminlar nafaqat lingvistik, balki siyosiy-ijtimoiy kontekst tomonidan ham shakllangan, bu esa Koreya terminologiya fanida “terminologik vaziyat” tushunchasini boyitishga imkon yaratgan.

Ilk koreys davlatlarining iqtisodi asosan agrar xo'jalikka tayangan bo'lib, yirik sug'orish inshootlari barpo etilgan va dehqonchilik mahsulotlari asosiy boylik hisoblangan. Bu davrda Koreya Xitoy ta'siriga tushib, Konfutsiychilik boshqaruvi va xitoy yozuvi joriy etildi. Pul muomalasi cheklangan edi, savdo ayirboshlash ko'proq barter shaklida olib borilgan. 김부식 [Kim Busik] “삼국사기 [Kim Busik 1145; 27]” [Samguk Sagi] (“Uch podshohlik tarixi”) asari 1145-yilda yozilgan bo'lib, ushbu asar uch koreys davlatining qadimgi tarixini bayon qiluvchi eng qadimiy solnomadir va unda o'sha davrdagi soliqlar, xo'jalik yuritish tartiblari haqida ma'lumotlar uchraydi. Quyida shu davrda qo'llangan asosiy iqtisodiy-moliyaviy terminlar keltirilib, ularning koreyscha yozilishi (hanja, hangul) va semantik xususiyatlari hamda etimologiyasi tahlil qilinadi:

“조세” [jose] — „soliqlar “umumiy termin bo‘lib, uch podshohlik davrida Xitoy ta’siridagi 조[jo] tizimi doirasidagi barcha majburiy to‘lovlarni (전조 — yer solig‘i yoki hosildan olinadigan soliq, 신용/인두세 — mehnat solig‘i yoki shaxsiy soliq, 호조 — xo‘jalik/uy-joy solig‘i) ifodalagan. 조세[jose] ikki bo‘g‘indan iborat. Uch podshohlik davrida davlat daromadlari deyarli to‘liq natural shaklda (don, mato, mehnat) qabul qilingan. 조세 tushunchasi nafaqat soliq to‘lovlarini, balki podshoh farmonlari orqali muassasa va shaxslarga berilgan soliq imtiyozlari doirasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham qamrab olgan. Zamonaviy koreys tilida ham 조세 “soliqlar” ma’nosida ishlatiladi, biroq to‘lovlar pul ko‘rinishida amalga oshiriladi. 조세 termini Xitoy tilidan kirib kelgan sino-koreyscha birlik bo‘lib, 租 (zū) — “ijara, yer solig‘i”, 稅 (shuì) — “soliq yig‘imi” ma’nolarini beradi. Dastlab 공납(貢納) nomi bilan atalgach, keyinchalik 조 tizimi shakllangach ‘조세’ nomi keng tarqalgan.

교역 [gyo-yeok] — “ayirboshlash, savdo almashinuvi” degan keng ma’nodagi termin bo‘lib, uch podshohlik davrida tovarlar va xom ashyoning natural barter yo‘li bilan almashtirilishini ifodalagan. 무역 [mu-yeok] asosan xalqaro tijorat savdosini bildirsa, 교역 mahalliy hamda chegaraviy almashinuvni qamrab olgan. Uch podshohlik davrida 교역 nafaqat ichki bozorlardagi natural almashinuvni, balki chegaraviy va xalqaro savdo aloqalarini ham ifodalagan. Zamonaviy koreysda 대외 교역 “tashqi savdo”, 무역 esa keng tijorat tushunchasi sifatida qolmoqda. Xitoycha “jiāoy” so‘zi koreyschaga o‘tib, 교 [kjo] + 역 [jak] tarzida mustahkamlangan. 무역 termini esa “ayirboshlash”, “savdo” birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, odatda xalqaro savdoda qo‘llangan.

“시장” termini koreys tilida asosan “bozor, savdo maydoni” ma’nosini bildiradi. U so‘zma-so‘z tarjimada 시 “bozor, shahar markazi” va 장 “maydon, joy” degan belgilarni o‘ziga jamlaydi. “삼국사기 [Kim Busik 1145; 27]” Samguk Sagi (“Uch podshohlik tarixi”)ga ko‘ra, doimiy bozor institutining ilk belgilari Sillada paydo bo‘lgan: 490-yilda (Soji Van hukmronligining 12-yili) poytaxt Gyeongjudagi bozor birinchi marotaba ochilib, to‘rt tomondan kelgan mollarning erkin ayirboshlanishi ruxsat berildi. Keyinroq, 509-yilda (Jijeung Van davri) poytaxtda “Sharqiy bozor” tashkil etildi va bozorni boshqarish uchun “bozor noziri” lavozimi joriy qilindi. Goguryeo va Baekje manbalarida ham VI asrda poytaxtlarda qullar, chorva mollari va kundalik ehtiyoj buyumlari savdosi bo‘lganligi qayd etiladi. Ushbu termin sinoxitoycha “shìchǎn” so‘zidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, klassik xitoy tilida “bozor, shahar markazi” (shì) va “maydon, joy” (chǎng) ma’nosini anglatadi. Koreys yozma yodgorliklarida bozor instituti Xitoy tajribasiga asosan tatbiq etilgani qayd etilgan. Hozirgi koreys tilida 시장 so‘zi umumiy bozor tushunchani, jumladan, ulgurji va chakana bozorlarni ham bildiradi.

“재물” termini koreys tilida mol-mulk, boylik va mulkiy ashyo tushunchalarini bildiradi. Tarixiy manbalarda 재물 termini mulk-huquqiy munosabatlarni ifodalashda keng qo‘llangan. Etimologik jihatdan, 재물

termini sof sino-koreyscha bo‘lib, Xitoydan kirib kelgan. Koreys yozma yodgorliklarida mulk tushunchasi faqat 재산 termini orqali ifodalangan; mahalliy til qatlamida aniq sinonimlar mavjud bo‘lmagan. Bu iboralar Yaponiyaning Ritsuryo huquqiy tizimi va Xitoy huquq-madaniy ta’siri ostida koreys leksikonga kirib, mulk egaligi hamda meros masalalarini rasmiylashtirish uchun akademik termin sifatida shakllangan. 재물 [jaemul] yozma yodgorliklarda kam uchraydi, o‘rniga aniq mulkiy ifodalar (mato, yer, guruch) bilan ifodalangan. Koryo — Choson davrida keng doirada mulkiy va iqtisodiy resurslar (yer, chorva, boylik, uy-joy)ni anglatgan. Ko‘proq huquqiy va moliyaviy hujjatlarda uchraydi. 재물 so‘zining ma’nosi torayib, asosan moddiy (material) boylik, aniq mulkiy narsa (mulk, pul, tilla) ifodalanadigan bo‘lib, hozirda esa ma’naviy boyliklar (bilim, qadriyat) uchun boshqa terminlar (지식, 가치 등) ishlatilmoqda.

“조공” termini Xitoy imperatoriga yoki mintaqaviy gegemon kuchlarga vassal davlatlar tomonidan yuboriladigan tobelik hadya-solig‘ini ifodalaydi. So‘zma-so‘z “ertalabki nazr” ma’nosini beruvchi bu ibora tarixiy manbalarda siyosiy bo‘ysunish, ittifoqlik yoki tinchlik evaziga yuboriladigan sovg‘alar majmuasini anglatgan. Uch podshohlik davrida Goguryeo va Silla yilnomalarida 조공 amaliyoti muntazam qayd etilar: masalan, Goguryeo podshohi 43-yili Song sulolasiga elchi yuborib 조공 qilgani, Silla esa 651-yilda malika Jindeok davrida Tang imperiyasiga elchilar orqali 조공 jo‘natgani qayd etilgan. 조공 ko‘pincha siyosiy maqsadli elchilik bilan birlashtirilib, vassal davlat oltin, kumush va matolarni yuborar, evaziga Tang saroyi kitoblar, ipak va texnologik mahsulotlar beradi. Etimologik jihatdan, xitoy tilida 朝 → 조 [jo] “imperator huzuriga kirish, saroy”, 貢 → 공 [gong] esa “to‘lov, sovg‘a” ma’nosini bildiradi; koreyschada bu 조 [jo], 공 [gong] deb talaffuz qilinadi. 조공 termini shu tariqa nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy-diplomatik institut sifatida ham milliy hujjatlarimizda o‘z o‘rnini topgan. 조공 (jogong) — Tang va Song imperiyalariga yuboriladigan siyosiy-diplomatik hadyalarni ifodalagan keng ma’noda ishlatilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u vassallik va iqtisodiy qaramlik institutini anglatuvchi ixtisoslashgan tushunchaga toraygan; shuningdek, diplomatik maktublar va elchilik aloqalari orqali amalga oshiriluvchi davlatlararo munosabat mexanizmi sifatida ham kengaygan.

“화폐” termin ikkita hanjadan tashkil topgan: 화 [hwa] “tovar; mahsulot”) va 폐 [pye] “pul birligi; valyuta”). Termin “pul; valyuta; moliyaviy muomaladagi vosita” ma’nosini anglatadi. Koreys tilida 화폐 sohaga xos ilmiy-rasmiy leksik birlik sifatida qabul qilingan bo‘lib, uning atamaviy-semantik tahlili uch podshohlik davri iqtisodiy almashuv tizimini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. Ilmiy- tarixiy kontekstda 화폐 termini amalda natural pul: guruch, mato, temir kabi qiymat birligi sifatida ishlatilgan tovar muomalasini ifodalaydi. 삼국사기 [Kim Busik 1145; 27-bet] Samguk Sagi (“Uch podshohlik tarixi”) ma’lumotlariga ko‘ra, uch podshohlik davrida 포 “mato” va 조 “guruch” soliq vositasida va bozor

almashuvida pul funksiyasini bajargan. VII asr bozor narxlarida “bir bo‘lak mato = 30 yoki 50 seok guruch” deya belgilanganligi orqali universal ekvivalent xususiyati namoyon bo‘lgan. Etimologik nuqtayi nazardan, termin koreys tiliga 화폐 shaklida kirib, Koryo davridan boshlab, rasman maqbul ilmiy-rasmiy leksikaga kirdi. Mahalliy leksikada dorilar va qog‘oz pullar uchun mos holda 지폐, 돈표 kabi terminlar paydo bo‘ldi, ammo umumiy valyuta tushunchasi 화폐 da mujassamlashdi. 화폐 (hwapye) termini dastlab tovar-ekvivalent — guruch (조) va mato (포) — asosida barter pul funksiyasini bildirgan. Keyinchalik Koryo davrida mis tangalar (鐵錢) joriy etilgach, termin ilmiy-rasmiy pul tushunchasiga torayib, aniq pul vositasini ifodalashga yo‘naltirildi. Zamon o‘tishi bilan 화폐 keng ma’noga ega b‘lib, hozirda naqd pul (현금), elektron pul (전자화폐) va virtual pul (가상화폐) shakllarini o‘z ichiga oladigan umumiy “pul birligi” konsepsiyasiga kengaydi. Hozirgi zamon koreys tilida 화폐 barcha pul turlarini — tangalar, qog‘oz pullar, elektron valyuta kabilarni o‘z ichiga oladi. Uch podshohlik davriga xos “pul” tushunchasini aniq bag‘ishlash uchun termin nazariy konsept sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, amaliy almashinuv tovar ko‘rinishida bo‘lganini yodda tutish muhimdir.

Darhaqiqat, yuqoridagi tahlil Qadimiy Koreya iqtisodiy-moliyaviy terminologiyasining agrar va davlat institutlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettirishini ko‘rsatadi. “농자정분”, “녹읍” va “식읍” kabi sino-koreyscha birliklar nafaqat dehqonchilik va yer taqsimoti tamoyillarini, balki feodal moliyaviy munosabatlar tizimini ham belgilab bergan. Barter asosidagi natural muomala va Xitoy siyosiy-madaniy ta’siri ostida shakllangan bu atamalar agrar iqtisodning markaziy o‘rni, soliq va xizmat almashuvining institutsional mexanizmlarini aniq ifodalaydi. Natijada uch podshohlik davrida yaratilgan terminologiya Koreya terminologiyasida siyosiy-ijtimoiy kontekst bilan bog‘langan kompleks “terminologik vaziyat”ni yuzaga keltirgan.

Middle Korean period (O‘rta davr)

O‘rta davr Koreya terminologiyasi (VII–XIX asrlar) asosan klassik xitoycha (hanja) bazasida shakllangan bo‘lib, rasmiy hujjatlar, iqtisodiy va agrar bilimnomalar hamda moliyaviy hisob-kitoblarda sino-koreys leksikasi ustivor rol o‘ynagan. XV asrda Sejong sulolasi tomonidan Hangukning joriy etilishi qaror tilchilik va ta’lim sohalarida yozma an’anani yengillashtirgan bo‘lsa-da, ixtisoslashgan terminologiyada hanja morfemalari uzun muddat dominatdan chiqmadi. Bu davrda 세곡[segok] — “soliq tariqasida yig‘iladigan don, 공부[gongbu] — “mulkdordan olinadigan majburiy yig‘im” yoki 화식[hwasik] — “savdo orqali boylik akkumulyatsiyasi” kabi terminlar sinoxitoy iqtisodiy konseptlarini aks ettiruvchi terminologik birliklarga misol bo‘lib, ular agrar-moliyaviy tizimni ilmiy yondashuv bilan ifodaladi. XIX asr oxirlarida G‘arb savdo-sanoat ta’siri va milliy sho‘ro yozuvining rivojlanishi natijasida koreyscha ildizli yangi tushunchalar asta-sekin til repertuariga qo‘shila boshladi, biroq an’anaviy terminologik korpus ustuvorligini saqlab qoldi. O‘rta davr

(VII–XIX asrlar) Koreya terminologiyasi va 서유구 [Seo Yu-gu]ning “임원경제지 [Seo Yu-gu 1841; 88-bet]” (“Oʻrmon va bogʻ iqtisodiy toʻgʻrisida”) asarida uchragan asosiy iqtisodiy-moliyaviy terminlar quyidagicha:

1. “서유구는 전어지인에서 목축과 전어가 군려, 선유, 화식, 봉양에 쓰임새가 있다는 점을 들어놓고 있다.” (“Jeoneo Jiin” boʻlimida chorvachilik va baliqchilikning harbiy yurish, kemada sayohat, savdo orqali boylik orttirish va boqish maqsadlarida qoʻllanilishini misol qilib keltiradi.)

“화식” [hwasik] — “savdo orqali boylik yigʻish” — 화[hwa]“tovar, pul” + 식[sik] “rivojlanish, koʻpayish” morfemalaridan tashkil topib, savdo-sotiq faoliyati orqali boylikni koʻpaytirish jarayonini ifodalaydi. Aslida esa bozor iqtisodini faollashtirib, savdogarlarning akkumulyatsiyasini tavsiflaydi. Etimologik jihatdan, termin Sino-koreys boʻlib, Xitoy klassik iqtisodiy matnlarida “[huòzhí (貨殖)]” sifatida uchragan. Koreya tilida savdo va moliyaviy barqarorlik konseptida qabul qilingan. Dastlab **savdogarlarning daromad orttirish** faoliyatini bildirgan atama sifatida toraygan; biroq keyinchalik iqtisodiy jarayonlarning umumiy kategoriyasiga kengayib, xususan **kapital aylanmasi** va **bozor mexanizmi** kabi makroiqtisodiy tushunchalarni ham oʻz ichiga oladigan kengroq maʼnoga ega boʻldi.

2. “태종 조시 정 공부” — (“Taizong sulolasi davrida [gongbu], mulkdordan yigʻiladigan majburiy soliq] birinchi marta belgilandi.”)

“공부” [gongbu] — “mulkdordan yigʻiladigan soliq” — 공[gong] “yuborish, topshirish” + 부[bu] “belgilash, taqsimlash” morfemalaridan tashkil topgan boʻlib, davlatga majburiy toʻlov yoki soliq nazarda tutiladi. Etimologik tahlil asoslansa, Sino-koreys “[gòngfù]” termini feodal davlat moliyaviy poydevorini tashkil qiluvchi muhim tushuncha sifatida oʻrganilgan. Ilk bosqichda **davlatga topshiriladigan har qanday resursni** (pul, don, mato va h.k.) anglatgan umumiy termin boʻlgan; Joseon davrida esa semantik jihatdan torayib, faqat **agrar mulkdorlardan olinadigan majburiy don-soliq** (don yoki mahsulot tarzida) tushunchasiga ixtisoslashdi.

3. “국가에서 필요한 세 곡은 대부분 바다와 강의 물길을 따라 배로 운송하였다.” (Davlat uchun zarur boʻlgan seokok[segok] asosan dengiz va daryolarning suv yoʻllari boʻylab kemalar yordamida tashilgan.)

“세곡”[segok] — “soliq tariqasida yigʻilgan don” — 세[se] (“soliq”) + 곡[gok] (“don”) morfemalardan tashkil topgan boʻlib, feodal soliqlar asosan don shaklida yigʻilganini bildiradi. Etimologik jihatdan, “세(稅)” va “곡(穀)” belgilari agrar iqtisodiyotda hukumat daromadining asosiy manbasi sifatida qabul qilingan. Avvallari **umumiy oziq-ovqat mahsulotlarini** ifodalaydigan keng koʻlamli termin boʻlgan; keyinchalik **soliqqa oid va markaziy omborlarga yetkaziladigan don** maʼnosiga semantik jihatdan toraygan.

Shunday qilib, Oʻrta davr (VII–XIX asrlar) Koreya terminologiyasi agrar-moliyaviy sohada asosan sino-koreys (hanja) morfemalarga tayanib shakllandi: 세곡[segok] — “soliq tariqasida yigʻilgan don”, 공부[gongbu]

— “mulkdordan majburiy yig‘im”, 화식[hwasik] — “savdo orqali boylik akkumulyatsiya”. XV asrda Hangul joriy etilishi yozma amaliyotni soddalashtirgan bo‘lsa-da, hanja birikmalari rasmiy va ixtisoslashgan terminologiyada ustuvorligini saqlab qoldi. Seo Yu-gu “임원경제지 [Seo Yu-gu 1841; 88-bet]” dagi 화식 tahlili terminning morfologik tarkibi, semantik yuki va Xitoy klassik etimologiyasini ochib beradi, bu esa O‘rta davr terminlarini o‘rganishda hanja va hangul qatlamlarini integrativ yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu iqtisodiy-moliyaviy terminlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Joseon davri til va iqtisodiyot o‘rtasidagi bevosita aloqani yaqqol aks ettirgan. Terminlar dastlab Xitoy klassik iqtisodiy tafakkuridan koreys kontekstiga moslashtirilgan, ammo ularning semantik sohalari tarixiy ehtiyojga qarab kengayish (화식) yoki torayish (공부, 세곡) yo‘nalishida rivojlangan. Bu holat koreys tilida ijtimoiy-iqtisodiy realliklarni ifodalashdagi lingvistik dinamikani o‘rganishda muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘rta davr Koreya terminologiyasi mahalliy yozuv-madaniyat va Xitoy iqtisodiy-falsafiy an‘analarini uyg‘unlashtirgan holda, agrar va moliyaviy atamalarining ilmiy ifodasini shakllantirdi. Sejong sulolasi davridagi Hangulning joriy etilishi terminlarni fonetik yozuv orqali kengaytirsa-da, hanja morfemalari ustuvor o‘rnini keyingi asrlargacha saqlashga yordam berdi. Bu esa zamonaviy koreys ilm-fanida O‘rta davr terminlarini tadqiq qilishda ikki qirralik, ya‘ni sino-koreys etimologiya va fonetik yozuv yondashuvini e‘tiborga olish zaruratini ko‘rsatadi.

Early Modern Korean period (Ilk zamonaviy davr)

Ilk zamonaviy Koreya davri — Joseon sulolasining so‘nggi bosqichi bo‘lib, bu davrda iqtisodiy faoliyatning murakkablashuvi bilan bir qatorda til tizimida ham terminologik ixtisoslashuv jarayoni kuchaydi. Rasmiy hujjatlar, soliqqa oid qonunlar, iqtisodiy risolalar va agrar tadqiqotlar orqali iqtisodiy-moliyaviy terminlar leksik tizimda shakllana boshladi. Bu davrda iqtisodiy terminlar asosan hanja (klassik xitoy yozuvi) asosida ifodalangan bo‘lib, ularda xitoy tilidan kirib kelgan sinoxitoy leksikasi ustunlik qilgan. Har holda, 1443-yilda ixtiro qilingan hangul yozuvi omma orasida savodxonlikni yengillashtirgan bo‘lsa-da, mutaxassislik va boshqaruvga oid terminologik qatlam hanjaga tayanishda davom etdi. Bu holat iqtisodiy tushunchalarning ijtimoiy tabaqalanishiga xizmat qilgan: ya‘ni, yuqori sinf (amaldorlar va ilmiy doiralar) xitoy yozuvida, oddiy xalq esa hangul asosida iqtisodiy muomalalarni ifodalagan.

Ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan qaralganda, bu davrda iqtisodiy terminlar: 1) metaforik bo‘g‘inlardan ixtisoslashgan terminlarga o‘tgan; 2) sino-koreys elementlarga tayanib sistematiklashgan; 3) agrar va boshqaruv tuzilmalari bilan bevosita bog‘liq semantik maydonlar asosida shakllangan; 4) terminologik barqarorlikka erishish bosqichida bo‘lgan.

홍만선 (Hong Man-seon, 1643–1715) tomonidan yozilgan “산림경제 [Hong Man-seon 1715; 53-bet]” to‘rt jildidan iborat qo‘lyozma asar bo‘lib, u agrar-ensiklopedik xarakterga ega. Asarda quyidagi 16 mavzu bo‘limlari mavjud. Bu asar nafaqat qishloq xo‘jaligi va o‘rmon

xo‘jaligi bo‘yicha ilmiy-amaliy qo‘llanma, balki o‘sha davr Koreya qishloq hayoti, ijtimoiy an‘analari, sog‘liqni saqlash va hatto hayvon-parvarish usullarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli “hayot ensiklopediyasi” sanaladi. Asarda qo‘llanilgan iqtisodiy-moliyaviy terminlar quyidagilar:

1. “세세지법, 각주현 소부여시” — (“Yillik soliqlar tartibi: har bir viloyat va tuman soliqni shu usulda undiradi.”)

“세제” so‘zi sino-koreys ikki morfemadan — “세 (soliq)” va “제 (tizim, qoida)” — iborat bo‘lib, “soliq tizimi” yoki “soliqlarni belgilash va yig‘ish tartibi” ma‘nosini anglatadi. Morfologik jihatdan bu ikki nom bilan tugagan birikma bo‘lib, termin sifatida mustahkam bir semantik birlik hosil qiladi. Etimologik ildizlarga nazar tashlasa, “稅” hanja radikalidagi “禾” (don) komponenti agrar hosil yig‘imiga ishora qilgan; qadimiy xitoy tilida “sra” ildizidan kelib chiqqan bu so‘z agrar yig‘imni ifodalagan. “制” esa Zhou va Qin hujjatlarida “tartib o‘rnatish, boshqaruv” ma‘nosida ishlatilgan bo‘lib.

Semantik diaxronik evolyutsiyasida, klassik Xitoy davrida “세제” termini asosan **faqat agrar hosildan olinadigan yillik yig‘im normativlari** majmuasini bildirar edi, ya‘ni barqaror don miqdorini belgilovchi qoidalar to‘plamini anglatgan. Joseon imperiyasining XVII–XIX asrlarida esa termin **pul ko‘rinishidagi majburiy yig‘imlar** tartibini ham qamrab olib, semantik jihatdan kengaydi va barcha agrar hamda monetar soliqlarni o‘z ichiga oldi. Keyinchalik “세제” tushunchasi yanada umumlashib, **“butun soliq qonunchiligi”** darajasidagi barcha majburiy yig‘imlar tizimini ifodalovchi keng konsept sifatida qabul qilindi.

2. “범주자본지법, 수재적취부시, 불가속소.” — “Kapitalni yig‘ish usulida, avvalo, uni jamlash va tatbiq etishga e‘tibor qaratiladi; uni tez sarflash mumkin emas.”

“자본(資本)” termini sino-koreys ikki hanja morfemadan — 자 [ja] “資” (“resurs, mol-mulk”) va 본 [bon] “本” (“ildiz, poydevor”) iborat bo‘lib, “kapital” tushunchasining asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Morfologik jihatdan bu ikki mustaqil nom (ot+ot) birikmasi bo‘lib, shaxsiy yoki davlat iqtisodiyotida “ishlab chiqarish vositalari va investitsiya resurslari”ni ifodalash uchun ishlatiladi. Etimologik ketma-ketlikda 자 [ja] 資 hanjasi qadimiy Xitoy tilida “mol, sarf-xarajat” ma‘nosini bildirgan bo‘lsa, 자 [ja] “資” hanjasi “ildiz, boshlang‘ich nuqta, asos” tushunchalarini qamrab oladi. Xitoy klassik davrida “자본” atamasi **moddiy boylikning boshlang‘ich manbayi**, ya‘ni dehqonchilik va hunarmandchilikda zarur vositalar majmuasini anglatar edi. Zamonaviy iqtisod nazariyasida esa keng ma‘noda, bu tushuncha **pullik kapital, jismoniy aktivlar, inson kapitali** va **ijtimoiy kapital** kabi turli shakllarni ham o‘z ichiga oladigan “mablag‘larning barcha investitsion va strukturaviy shakllari” konsepsiyasiga kengaydi.

Xulosa qilib aytganda, Early Modern Korean davrida iqtisodiy-moliyaviy terminlar o‘zining dastlabki konseptual va ijtimoiy jihatdan ixtisoslashgan qatlamini shakllantirdi. Bu terminlar nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki iqtisodiy boshqaruv tizimi vositasi sifatida ham faol

rol o'ynadi. Ularning semantik taraqqiyoti keyingi zamonaviy koreys tilida iqtisodiy terminologiyaning asosiy poydevorini yaratdi.

Modern Korean period (Zamonaviy davr)

Zamonaviy Koreya davri (XX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi kungacha) tilshunoslik sohasida terminologik ixtisoslashuv yo'nalishini keskin kuchaytirdi. Iqtisodiy-moliyaviy lug'atda Sino-Koreys hanja morfemalari asosini saqlab qolgan holda, g'arbcha bozor iqtisodiyotiga oid inglizcha leksika integratsiyalashdi: "inflyatsiya" 인플레이션[inflasyon] — *inflation*, "konglomerat" 재벌 [chaebol] — *conglomerate*), "obligatsiya" 본드 [bondi] — *bond*, "marja" 마진[margin] — *margin*) kabi terminlar kundalik va rasmiy matnlarda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, Koreya Til Instituti va Milliy Terminologiya Kengashi sinoxitoy terminlarni koreys tiliga moslashtiruvchi neologizmlar (masalan, "foiz stavkasi" 이자율[i-ja-yul], *interest rate*, "valyuta kursi" 환율[hwan-yul], *exchange rate*, "moliyaviy bozor" 금융시장 [geum-yung si-jang], *financial market*) standartlashtirish orqali milliy lug'atni boyitdi. Natijada zamonaviy davrda Koreya iqtisodiy terminologiyasi heterogen — ko'p manbali va amaliyotga bevosita bog'liq struktura sifatida shakllandi.

Quyida Park Chung Hee "5 개년계획 [Park Chung Hee 1962; 4-bet]" (Besh yillik iqtisodiy rivojlanish rejasi) matnidan tanlangan asosiy iqtisodiy-moliyaviy terminlar:

1. "제 1 차 계획의 기본 목표는 '자립경제 달성을 위한 기반 구축'이었다." — "*Birinchi besh yillik rejaning asosiy maqsadi **mustaqil iqtisodiyotni ta'minlash uchun poydevor qurish edi.***"

"자립" [jalip]: ikki qismli Sino-koreys qo'shma oti bo'lib, "자" [ja] 自 "o'zi" + "립" [lip] 立 "turish" — aslida "o'z-o'zidan barqaror turish" ma'nosini bergan. Xitoy klassik matnlarida siyosiy va ijtimoiy "avtonomiya" tushunchalarini ifodalashda ishlatilgan. "경" [gyeon] 經 "o'tkazish, boshqarish" + "제" [je] 濟 "yengillashtirish, tejash" — "iqtisodiy oqimni boshqarish" ma'nosini bildirgan, sutkalik resurs almashinuvini nazarda tutgan. Birinchi besh yillik reja davrida termin milliy sanoat va mavjud resurslarni ishga solish orqali iqtisodiy avtarkiyani ta'minlashga qaratilgan siyosatni ifodalagan. Ikkinchi besh yillik rejada u yirik sanoat yo'nalishlarini rivojlantirish orqali aniq "자립경제 확립" (mustaqil iqtisodiyot o'rnatish) konseptiga torayib, muddatli sanoat maqsadlarini belgiladi. Bugungi kunda esa "자립경제" kengroq tushuncha sifatida milliy iqtisodiy mustahkamlikni, turli sohalarda o'z-o'zini ta'minlashni va global zanjirlardan mustaqil bo'lish strategiyasini aks ettiradi (semantik kengayish).

2. "제 1 차 계획에서는 수출 증대를 주축으로 하는 국제수지의 개선을 주된 과제로 삼았다." — "*Birinchi reja doirasida **eksportni oshirishni** asosiy yo'nalish qilib, xalqaro to'lov balansini yaxshilash asosiy vazifa sifatida belgilandi.*"

"수출" [suchul]: "수" [su] 輸 "transport, tashish" + "출" [chul] 出 "chiqish, berish" — "tovarlarni chetga chiqarish" jarayonini ifodalagan.

Ikki qismli Sino-koreys qo'shma oti bo'lib, “증” [jeun] 增 “ko'paytirish, oshirish” + “대” [dae] 大 “katta, asosiy” — hajmni “muhim darajada kattalashtirish” tushunchasini o'zida mujassamlashtirgan. Birinchi besh yillik rejada “수출증대를 주축으로 하는 국제수지의 개선” (“Eksport hajmini kuchaytirishni ustuvor omil sifatida belgilagan holda xalqaro hisob-balansni yaxshilash”) shaklida eksport hajmini oshirishni asosiy siyosiy vosita sifatida belgilagan. Ikkinchi rejada termin aniq miqdoriy maqsadlarni — masalan, “7 억불 수출 달성” (“700 million dollar eksportga erishish”) kabi ko'rsatkichlarni ifodalovchi tor ramziy tashbehga toraydi. 1960-yillar o'rtalaridan boshlab esa “수출주도형 개발전략” (eksportga asoslangan rivojlanish strategiyasi) konsepti bilan birgalikda milliy o'sish modelining markaziy poydevorini tashkil etuvchi kengroq eksportga asoslangan siyosatni bildiradi.

3. “중점과제 중 하나로 7 억불 수출 달성, 획기적인 국제수지 개선의 기반 확립을 제시하였다.” — “Asosiy vazifalardan biri sifatida 700 million dollar eksportga erishish va **xalqaro to'lov balansini tubdan yaxshilash** uchun poydevor yaratish ko'zda tutildi.”

“국제”[gukje]: “국” [guk] 國 “davlat, qabilalar” + “제” [je] 際 “chegarada, orasida” — “turli davlatlar o'rtasi” ma'nosini bildirgan. Ikki qismli Sino-koreys qo'shma oti bo'lib, “수” [su] 收 “olish, yig'ish” + “지” [ji] 支 “to'lash, sarflash” — barcha moliyaviy kirim va chiqimlarni o'zida jamlagan “muvozanat” tushunchasini ifodalagan. Birinchi besh yillik reja matnida “국제수지의 개선” iborasi asosan tovar va xizmat almashinuvidan keladigan daromad va xarajatlarni muvozanatlash, ya'ni savdo balansini yaxshilashni anglatgan tor doiradagi termin edi. Keyinchalik atama barcha tashqi iqtisodiy operatsiyalar — tovar, xizmat, daromad va kapital oqimlarini o'z ichiga oluvchi to'liq balans konsepsiyasiga nisbatan qo'llanildi. Ommaviy siyosat tilida esa ko'pincha faqat joriy hisob balansini bildiruvchi tor ma'noda ishlatiladi.

3. “부는 1962 년 6 월에 통화개혁을 단행했지만, 거의 성과를 거두지 못하였다.” - “Hukumat 1962-yil iyun oyida **pul islohotlarini amalga oshirdi, biroq deyarli hech qanday natija bera olmadi.**”

“통화” [tonghwa]: “통” [tong] 通 “o'tish, erkin aylanish” + “화” [hwa] 貨 “tovar, pul vositasi” — “pulning erkin aylanishi” ma'nosini bildirgan. Ikki qismli Sino-koreys qo'shma oti bo'lib, “개” [gae] 改 “o'zgartirish, yangilash” + “혁” [hyeok] 革 “reforma, yangicha shakl” — siyosiy-iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirish tushunchasini o'zida mujassamlashtirgan. 1962-yil iyun oyida o'tkazilgan “통화개혁” choralari ortiqcha likvidlikni bartaraf etish va iqtisodiy resurslarni milliy sanoatni moliyalashtirishga yo'naltirishga qaratilgan. Ilk ta'riflarida u asosan pul birligining redenominatsiyasi va depozitlarni muayyan muddatga bloklash choralarni anglatgan tor ma'noli termin sifatida ishlatilgan. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda esa “통화개혁” keng ma'noda pul tizimini tubdan isloh qilish, markaziy bank siyosatini mustahkamlash va inflyatsiyani nazorat qilish kabi kompleks choralarning umumiy nomi hisoblanadi.

Darhaqiqat, zamonaviy davrda Koreya iqtisodiy-moliyaviy terminologiyasi asosiy xususiyatlari jihatidan ikki manbali strukturaga ega

bo‘lib, bir tomondan hanja morfemalari orqali sino-koreys terminologiyaning an’anaviy qatlami mustahkamlanadi, ikkinchi tomondan esa inglizcha leksikaning keng integratsiyasi global bozor iqtisodiyotiga mos tushunchalarni yaratadi. Bu jarayonda Koreya Til Instituti va Milliy Terminologiya Kengashining rasmiy neologizmlarni — masalan, “이자율” (foiz stavkasi), “환율” (valyuta kursi) va “금융시장” (moliyaviy bozor) — standartlashtirish orqali milliy lug‘atni boyitishi terminologiyaning milliy o‘zligiga ham e’tibor qaratilganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, “자립경제”, “수출증대”, “국제수지”, “통화개혁” kabi makroiqtisodiy atamalarining dastlabki siyosiy makroindikatorlardan tortib, so‘nggi yillarda strategik rivojlanish va monetar siyosat konseptlariga kengayishi bu terminologiyaning amaliy-siyosiy ehtiyojlarga yuqori darajada moslashuvchan ekanligini namoyon etadi. Natijada zamonaviy koreys iqtisodiy-moliyaviy leksikasi heterogen, dinamik va milliy-xalqaro ta’sirlar muvozanatida shakllangan ilmiy asoslarga tayangan tizim hisoblanadi.

Post Modern period (Post-zamonaviy davr)

Bu davrda Koreya iqtisodiy-moliyaviy terminologiyasi global-raqamli transformatsiya kontekstida ikki qavatli gibrid leksik tizimga o‘tdi. Birinchi qatlam inglizcha neologizmlarning fonetik va grafik moslashuvi orqali mahalliy til muhiti ichida semantik to‘liq integratsiyalanishini anglatadi: 핀테크 [pintekue], package, moliyaviy texnologiya; 블록체인 [beullokchein], blockchain, blokzanjir; 가상자산[gasangjasan], virtual asset, virtual aktiv; 암호화폐 [amhohwapye], cryptocurrency, kriptovalyuta.

Ushbu terminlar texnologik yangilanishlar va global bozor prinsiplarini koreys tiliga samarali ko‘chirib, innovatsion iqtisodiy faoliyat sohasini boyitdi. Ikkinchi qatlam esa milliy leksik-normativ siyosat doirasida rasmiy hujjatlar va me’yoriy-standartlarda qabul qilingan koreyscha ekvivalentlarni o‘z ichiga oladi: 전자화폐 [jeonjahwapye], electronic currency, elektron pul; 디지털 금융 [dijiteolgeumyung], digital finance, raqamli moliya; 윤리경영 [yunrigyeongyeong], ethical management, axloqiy boshqaruv.

Shu bilan birga, hanja-asosli makroiqtisodiy tushunchalar terminologiyaning an’anaviy qatlamini saqlab qoladi: 경제성장 [gyeongjesungjang], economic growth, iqtisodiy o‘shish va 금융안정 [geumyunganjeong], financial stability, moliyaviy barqarorlik. Natijada post-zamonaviy davr terminologiyasi global-raqamli omillar bilan milliy-madaniy mexanizmlar uyg‘unlashuvida, ilmiy-metodologik asoslar va amaliy-siyosiy ehtiyojlarga mos, dinamik gibrid tizim sifatida rivojlanmoqda.

Quyida 장하준 [Ha-Joon Chang] “나쁜 사마리아인들: 자유무역의 신화와 자본주의의 은밀한 역사 [Chang 2008; 21-bet]” (“Yomon samariyaliklar: erkin savdo afsonasi va kapitalizmning yashirin tarixi”) asaridan misollar keltirildi:

1. “경쟁에 노출되는 것이 빠르면 빠를수록 경제 발전에 더 많은 도움이 된다는 것이다.” — “*Raqobatga ochiqlik mumkin qadar tezroq bo‘lsa, iqtisodiy taraqqiyotga yanada ko‘proq xizmat qiladi.*”

“경제 발전” [gyeongje baljeon] termini ikki Sino-Koreys morfemadan iborat murakkab ot bo‘lib, har biri ikki bog‘lanma ildiz birikmasi sifatida tashkil topgan. 경제 [gyeongje] (經濟): 경 [gyeon] 經 “o‘tkazish, boshqarish” + 제 [je] 濟 “yengillashtirish, saqlash”. Bu so‘z asli “경제제민” [Gyeongsejemin] (경제 [gyeongse] — “jamiyatni boshqarish” yoki “davlat ishlarini yuritish”; 제민 [jemin] — “odamlarga yordam berish” yoki “xalqni farovon qilish” — “dunyo-siyosatni boshqarish orqali xalqni qutqarish” iborasining qisqartmasi sifatida vujudga kelgan. 발전 [baljeon], 발 [bal] 發 “chiqish, yayilish” + 전 [jeon] 展 “kengayish, yoyilish”. An‘anaviy ravishda “ochilish-yoyilish” tushunchasini bildirgan. Joseon davrida “경제 발전” asosan davlat siyosati va resurslarni markaziy boshqaruv orqali tartibga solish, xalqning moddiy holatini yaxshilash ma‘nosini bergan. XX asr o‘rtalarida Milliy YalIM (Yalpi Ichki Mahsulot) hajmini oshirish, sanoat diversifikatsiyasi va infratuzilma rivojini o‘lchovchi makroindikator sifatida tor ma‘noga ega bo‘ldi. XXI asrda “경제 발전” barqaror, inklyuziv va ekologik omillarni ham o‘z ichiga olgan rivojlanish modeli konsepsiyasiga kengayib, iqtisodiy o‘lishdan tashqari sifat ko‘rsatkichlarini ham qamrab oladigan atamaga aylandi.

2. “요컨대 신자유주의는 경제 발전을 어렵게 만들고, 생산성이 높은 새로운 능력의 획득을 까다롭게 하는 것이다.” — “*Xulosa qilib aytganda, neoliberalizm iqtisodiy taraqqiyotni qiyinlashtiradi va yuqori mehnat unumdorligiga ega yangi salohiyatlarni egallashni murakkablashtiradi.*”

“신자유주의” [sin-ja-yu-ju-ui] — “neoliberalism” uchta sino-koreys morfema: 신 [sin] (新, “yangi”) + 자유 [ja-yu] (自由, “erkinlik”) + 주의 [ju-ui] (主義, “izm/nazariya”) dan tashkil topgan. Iqtisodiy kontekstdagi ma‘nosi — bozorni erkinlashtirish, xususiylashtirish va davlatning iqtisodiy tartibga aralashuvini qisqartirish siyosati degan ma‘nolarni bildiradi. Termin dastlab 1930-yillarda “yangi liberalizm” ma‘nosida nemis nazariyotchilari tomonidan ishlatilgan; Koreyada esa 1970-1980-yillarda Margaret Thatcher va Ronald Reagan siyosiy amaliyoti bilan bog‘liq tarzda ommalashgan. Ilk bosqichda keng ma‘noda “yangi liberalizm” ni bildirgan bo‘lsa, hozirda asosan tor ma‘noda iqtisodiy erkin bozor siyosatini anglatadi; shuningdek, ijtimoiy va madaniy kontekstlarda ham globalizatsiyani tanqid qiluvchi umumiy metafora sifatida ma‘noviy kengaygan.

“생산성” [saeng-san-seong] — ishlab chiqarish unumdorligi — 생산 [saeng-san] (生産, “tug‘ilish/yaratish” + “ishlab chiqarish”) + 성 [seong] 性 (“sifat, xususiyat”)dan tashkil topgan nominal birlik. Semantik jihatdan, ish va resurslardan chiqqan mahsulot hajmini o‘lchovchi ko‘rsatkich — chiqimga nisbatan samaradorlik darajasidir. Xitoyda umumiy ishlab chiqarish jarayonini anglatgan; XX asr boshlarida sanoat

iqtisodiyotining o'sishi bilan jismoniy va mehnat unumdorligini o'lchovchi mezon sifatida qabul qilingan. Ilk davrlarda keng ma'noda, asosan, jismoniy ishlab chiqarish bilan bog'langan bo'lsa, hozirda xizmat sektori, intellektual va individual ish samaradorligini ham o'lchashda qo'llanadi; ayrim hollarda tor ma'noda, faqat sanoat unumdorligiga nisbatan ishlatilishi mumkin.

3. “어째서 개발도상국들로 하여금 외국인 투자를 규제하는 능력을 제한하는 국제 협정에 빠짐없이 서명하게 하려고 기를 쓰는 것인가?” — “Nega rivojlanayotgan davlatlarni **chet el investitsiyalarini cheklash salohiyatini poymol etadigan xalqaro shartnomalarga doimo imzo chekilishga majbur qilmoqchi bo'lmoqdasiz?**”

“외국인 투자” [oe-guk-in tu-ja] — chet el investitsiyalari - Sino-Korean morfemalari: 외국인[oe-guk-in] 外國人 — “chet el fuqarolari” + 투자[tu-ja] 投資 — “sarmoya kiritish”. Semantik jihatdan, chet el kapitali, texnologiya va boshqaruv usullarini ma'lum bir qabul qiluvchi mamlakatga o'tkazish orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir. Klassik Xitoy tilida “sarmoya kiritish” asosan moliyaviy kapitalni yo'naltirishni anglatgan; so'ngra Koreyada ham shu ma'noda qabul qilingan. Ilk bosqichda faqat pul sarmoyasini bildirgan bo'lsa, XI asr iqtisodiy nazariyalarida texnologiya, boshqaruv va inson resurslarini ham o'z ichiga oluvchi kengroq “investitsiya” tushunchasiga aylandi.

“국제 협정” [guk-je hyeop-jeong] — xalqaro kelishuv, shartnoma; 국제[guk-je] 國際 “davlatlar o'rtasi” + “협정” [hyeop-jeong] 協定 “kelishuv”. Davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasida siyosiy-huquqiy majburiyatlarni belgilovchi rasmiy hujjatdir. 국제[guk-je] termini XX asr boshida “international” ma'nosida Koreyaga kirib kelgan; “협정” [hyeop-jeong] cho'yxonalararo yoki diplomatik kelishuvlarni ifodalovchi klassik Xitoy termini sifatida mustahkamlangan. Ilk davrlarda tor ma'noda, asosan siyosiy yoki tinchlik shartnomalarini bildirgan bo'lsa, hozirda keng ma'noda, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik hamkorlik ramzi bo'lgan turli xalqaro bitimlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa

Darhaqiqat, Post-zamonaviy davrda Koreya iqtisodiy-moliyaviy terminologiyasi global-raqamli transformatsiya sharoitida uch qatlamli gibrid leksik tizimga aylangan. Birinchi qatlam inglizcha neologizmlarning fonetik va grafik moslashuvi (핀테크, 블록체인, 가상자산, 암호화폐) orqali innovatsion iqtisodiyotda yangi semantik qatlamni yaratadi. Ikkinchi qatlam esa rasmiy hujjatlar va me'yoriy standartlarda qabul qilingan koreyscha ekvivalentlar (전자화폐, 디지털 금융, 윤리경영) yordamida terminologiyani milliy madaniy-ma'muriy normalarga moslashtiradi. Uchinchi qatlam esa hanja asosli makroiqtisodiy tushunchalar (경제성장, 금융안정) orqali ilmiy-metodologik poydevorni saqlab, terminologiyaning tarixiy-nazariy uzluksizligini ta'minlaydi. Natijada Koreya post-zamonaviy terminologiyasi milliy siyosat ehtiyojlari va global

bozor talablari uyg'unligida barqaror, dinamik va amaliy-ilmiy jihatdan asosli gibrid modelga ega bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Абрагумов А.А., Стерликов Ф.Ф. 1000 терминов рыночной экономики. — М.: Кронпресс, 1993. — 193 с.
- Агафонова М.Ю., Азрилиан А.Н., Дегтярев С.П. и др. Большой экономический словарь. — М., Фонд “Правовая культура”, 1994. — 525 с.
- Анохина И.Г. Англо-русский коммерческий словарь-справочник. — М.: Моби, 1992. — 432 с.
- Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Едиториал УРСС, 2004. — 576 с.
- Большой корейско-русский словарь. В 2-х томах. Под ред. Л.Б. Никольский, Цой Дек Ху. Ок. 150 тыс. слов. — М.: Изд. “Русский язык”, 1976. — 671 с.
- Большой экономический словарь/ под ред. А.Н. Азрилиана. — М.: Фонд Правовая культура, 1994. — 746 с.
- Гу Зохуа, Шень Жицунь. Китайско-русский и русско-китайский торгово-экономический словарь. — Хэйлуцзян, 1992. — 650 с.
- Корейско-русский словарь: Ок. 80 тыс. слов. Ко Хён, Ким Ын Мо, Ли Чжун Гвон, Мазур Ю.Н., Никольский Л.Б.; Под ред. Ко Хёна. — Пхеньян: Наука и энциклопедии. — М.: Русский язык, 1994. — 891 с.

References

- Abragumov, A. A., & Sterlikov, F. F. (1993). *1000 terminov rynochnoy ekonomiki* (1000 Terms of Market Economy), Moscow, Kronpress. (In Rus.)
- Agafonova, M. Yu., Azriliyan, A. N., Degtyarev, S. P., & others. (1994). *Bol'shoy ekonomicheskiy slovar'* (Big Dictionary of Economics), Moscow, Fond “Pravovaya kultura”. (In Rus.)
- Anokhina, I. G. (1992). *Anglo-russkiy kommercheskiy slovar'-spravochnik* (English-Russian Commercial Dictionary), Moscow, Mobi. (In Rus.)
- Akhmanova, O. S. (2004). *Slovar' lingvisticheskikh terminov* (Dictionary of Linguistic Terms), Moscow, Editorial URSS. (In Rus.)
- Bol'shoy koreysko-russkiy slovar'* (Nicol'skiy, L. B., & Tsoy, Dek Hu, Eds.). (1976). *Bol'shoy koreysko-russkiy slovar'* (Big Korean–Russian Dictionary), Moscow, Russkiy yazyk. (In Rus.)
- Bol'shoy ekonomicheskiy slovar'* (Azriliyan, A. N., Ed.). (1994). *Bol'shoy ekonomicheskiy slovar'* (Big Economic Dictionary), Moscow, Fond “Pravovaya kultura”. (In Rus.)
- Gu, Zokhua, & Shen, Zhitsun. (1992). *Kitaysko-russkiy i russko-kitayskiy trgovno-ekonomicheskiy slovar'* (Chinese–Russian and Russian–Chinese Trade and Economic Dictionary), Heilongjiang. (In Rus.)
- Koreysko-russkiy slovar'* (Ko, Hyon, Kim, Yn Mo, Li, Chzhun Gvon, Mazur, Yu. N., & Nicol'skiy, L. B.; Ko, Hyon, Ed.). (1994). *Koreysko-*

ruskiy slovar' (Korean–Russian Dictionary), Pyongyang: Nauka i entsiklopedii;
Moscow: Russkiy yazyk. (In Rus.)